

№01-07/14  
27.10.2022y.

**TASDIQLAYMAN**  
**O‘zbekiston Respublikasi**  
**“O‘zarxiv” agentligi**  
**direktori, Hay’at raisi**



**U.M. Yusupov**  
2022-yil 27-oktabr

**“O‘zarxiv” agentligi Hay’atining kengaytirilgan yig‘ilishi**  
**14-son BAYONI**

**2022-yil 27-oktabr**

**Toshkent sh.**

**Raislik qiluvchi:**

U.M.Yusupov

“O‘zarxiv” agentligi direktori, Hay’at  
raisi;

**Qatnashdilar:**

Sh.Sadikov, X.Isayev, D.Kucharova,  
A.Mamanazarov, D.Zakirova

“O‘zarxiv” agentligi Hay’ati a’zolari;

**Taklif qilinganlar:**

J.Xushvaqtoev, G.Boboyeva,  
D.Madiyeva, S.Haqqazarov

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi  
bosh mutaxassisi, “UZA” O‘zbekiston Milliy  
axborot agentligi muxbiri, “O‘zbekiston 24”  
radiokanali jurnalisti, “Mahalla” radiokanali  
jurnalisti

Agentlik markaziy apparati xodimlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari, O‘zbekiston milliy arxivlari, Arxiv ishi va ish yuritish bo‘yicha malaka oshirish ilmiy-metodik markazi direktorlari va ularning o‘rinbosarlari, Qoraqalpog‘iston va Toshkent shahar markaziy hamda viloyat davlat arxivlari direktorlari

**KUN TARTIBI:**

I. “O‘zarxiv” agentligining 2022-yil 9 oy yakunlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Hukumati tomonidan belgilangan vazifalarning bajarilishi to‘g‘risida (**U.Yusupov**):

- *amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha arxiv ishi va ish yuritish markazi direktori*

**M.Rixsiboyevning hisoboti;**

II. “O‘zarxiv” agentligida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari va topshiriqlari ijrosini tashkil qilish va nazorat qilish, Agentlik tizimidagi tashkilotlarda ijro intizomi holati, uni mustahkamlash, bu borada rahbarlar mas’uliyatini kuchaytirish to‘g‘risida (**Sh.Sadikov, D.Yusupov**);

III. “O‘zarxiv” agentligi va uning tizimidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari hamda so‘rovlar ijrosi holati to‘g‘risida (**Sh.Sadikov, N. Anarkulova**);

IV. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-fevraldagi “Yer uchastkalaridan foydalanishda davlat nazoratini samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-138-son qarori ijrosi hamda Davlat arxivlari tomonidan “Davlat arxivlarida raqamlashtirilayotgan hujjatlarni yagona saqlovini ta’minlash hamda ulardan foydalanish” axborot tizimiga ma’lumotlarni kiritish holati to‘g‘risida (**X.Isayev, A.Ziyatdinov**);

V. “O‘zarxiv” agentligi tizimidagi shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari faoliyati tahlili to‘g‘risida (**U.Yusupov, L.Mirzayev**);

VI. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-sentabrdagi PQ-4463-son “O‘zbekiston Respublikasi “O‘zarxiv” agentligi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori ijrosini tahlil natijalari haqida (**Sh.Sadikov, D.Yusupov**);

VII. “O‘zarxiv” agentligi tizimidagi davlat arxivlarining kuz-qish mavsumiga tayyorgarligi holati to‘g‘risida (**Arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari, O‘zbekiston milliy arxivlari direktorlari**);

VIII. Turli masalalar.

### **I. “O‘zarxiv” agentligining 2022-yil 9 oy yakunlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Hukumati tomonidan belgilangan vazifalarning bajarilishi to‘g‘risida**

*(U.Yusupov, J.Xushvaqtov, Sh.Sadikov, X.Isayev, Sh.Xojiboyev, D.Kucharova, A.Mamanazarov, D.Zakirova, U.Yusupov)*

“O‘zarxiv” agentligi direktori U.Yusupovning “O‘zarxiv” agentligining 2022-yil 9 oy yakunlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Hukumati tomonidan belgilangan vazifalarning bajarilishi to‘g‘risidagi axboroti eshitildi.

O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishini rivojlantirishning 2022-yil 9 oyiga mo‘ljallangan rejasi 21 ta ko‘rsatkichlar bo‘yicha bajarilib, shundan 19 ta ko‘rsatkich bo‘yicha oshirib bajarilgan.

Xususan, **198 625** qog‘oz asosidagi hujjatlar (2021-yil 9 oyligida 179 257 varaq, o‘tgan yilga nisbatan o‘lish sur‘ati 111%) ta’minlanganligi, **66 7732 s.b. hujjatlar (101%) muqovalangan va tikilgan.**

Alohida qimmatli **15 263 s.b. (190%) qog‘oz asosidagi, 124 s.b. (157%) kino, 1 680 h.b. (109%) surat** hujjatlar aniqlangan.

**Davlat arxivlari tomonidan 124 961 s.b. (96%) boshqaruv, 417 s.b. (131%) shaxsiy kelib chiqish, 30 532 s.b. (92%) shaxsiy tarkib, 632 s.b. (351%) ilmiy-texnik** hujjatlar qabul qilingan.

**Davlat arxivlari tomonidan 525 743 s.b. boshqaruv, 5 929 s.b. shaxsiy tarkib, 3 480 s.b. shaxsiy kelib chiqish, 870 s.b. ilmiy-texnik hujjatlar, 1 145 h.b. surat** hujjatlarining mavjudligi va holati tekshirilgan.

Tashkilot va korxonalarining **davlat arxivlari tomonidan 135 758 s.b. boshqaruv, 702 s.b. ilmiy-texnik, 41 376 s.b. shaxsiy tarkib, 90 823 s.b. saqlash muddati vaqtincha bo‘lgan hujjatlari**, shuningdek, **shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari tomonidan 7 787 s.b. boshqaruv, 60 868 s.b. shaxsiy tarkib, 66 674 s.b. saqlash muddati vaqtincha bo‘lgan hujjatlari** shartnoma asosida tartibga keltirilgan.

Davlat arxivlarida saqlanayotgan **74 362 s.b. boshqaruv, 1 048 s.b. shaxsiy tarkib, 13 s.b. ilmiy-texnik hujjatlarning qimmatligini aniqlash ekspertizasi o'tkazilgan.**

Davlat arxivlari tomonidan tashkilot va korxonalarda **729 ta yalpi, 344 ta mavzuli** o'rganishlar o'tkazilganligi hamda arxiv ishi va ish yuritish bo'yicha **uslubiy hamda amaliy yordam ko'rsatilgan.**

"O'zarxiv" agentligi va hududiy boshqarmalar tomonidan 2022-yil 9 oy davomida **219 ta** tashkilot va korxonalarda davlat nazorati tadbirlari o'tkazilganligi, tekshirishlarning 22 tasi Agentlik tomonidan, 197 tasi arxiv ishi hududiy boshqarmalari tomonidan o'tkazilgan, tekshirish natijalariga ko'ra "O'zarxiv" agentligi tomonidan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 215<sup>4</sup>-moddasida nazarda tutilgan huquqbuzarlikni sodir etgan 5 nafar mas'ul xodimlariga nisbatan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomalar rasmiylashtirib tegishli sud organlariga yuborilgan, tashkilot va korxonalarga ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan **185 ta taqdimnomalar** kiritilgan, shuningdek, tekshirish natijalariga ko'ra huquqni muhofaza qiluvchi organlarga **3 ta material** yuborilgan.

**Respublika arxivlari** tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning umumiy hajmi 29,289 mlrd. so'mni, shundan **davlat arxivlarida** 19,026 mlrd. so'mni, **shaxsiy tarkib** hujjatlari davlat arxivlarida 10,263 mlrd so'mni tashkil etgan.

Norma ijodkorligi yo'nalishida "O'zarxiv" agentligi tashabbusi bilan ishlab chiqilgan Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 6-sentabrdagi 501-son "Arxiv ishi sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qarori qabul qilingan.

"O'zarxiv" agentligi direktorining 2022-yil 28-iyundagi 121-son "Axborot resurslarining arxiv nusxalarini yaratish va ularni davlat saqloviga topshirish bo'yicha yo'riqnomaga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi buyrug'i (*ro'yxat raqami 1703-1, 2022-yil 29-iyul*) tasdiqlangan.

2022-yil 6-avgustda Toshkent shahrida **O'zbekiston Respublikasi "O'zarxiv" agentligi va O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti hamda O'zbekiston Milliy media assotsiatsiyasi o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi memorandum** imzolangan.

"O'zbekiston-Isroil" do'stlik jamiyati tashkilotchiligida 2022-yil 15-avgust kuni onlayn formatda **"Новая эра инновационного академического лидерства"** mavzusidagi Xalqaro konferensiyasida ishtirok etilgan.

Isroil Davlati Ariel universiteti tashkilotchiligida 2022-yil 5-11-sentabrda Buxoro va Samarqand shahrida o'tkazilgan **"O'zbekiston-Isroil birinchi akademik forumi"**da ishtirok etilgan.

Chelyabinsk arxiv xizmati tashkilotchiligida 2022-yil 22-23-sentabr kunlari onlayn formatda **"Arxiv jamiyatda – jamiyat arxivda"** mavzusidagi V Umumrossiya **ilmiy-amaliy konferensiyasida** ishtirok etilgan.

Koreya Respublikasi Milliy arxivi tashkilotchiligida 2022-yil 22-23-sentabr kunlari onlayn formatda **"Arxivlar va genealogiya"** mavzusidagi V **Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasida** ishtirok etilgan.

O'zbekistondagi Shanxay hamkorlik tashkiloti Xalq diplomatiyasi markazi tashkilotchiligida 2022-yil 29-sentabr kuni **"SHHT doirasida madaniy-gumanitar hamkorligi vektorlari"** mavzusidagi xalqaro konferensiyasida ishtirok etilgan.

**Shu bilan birga,** Agentlik tizimidagi tashkilotlar tomonidan belgilangan vazifalar, 2022-yil 9 oyligiga belgilangan rejalari bajarilmagan va o'tgan yilga nisbatan o'sish suratini oshirishda sustkashlikka yo'l qo'yilgan. Jumladan:

Arxiv ishi va ish yuritish markazi (**M.Rixsiboyev**) pullik xizmatdan tushgan daromadi (27%) bo'yicha joriy yil 9 oyligiga belgilangan reja bajarilmagan.

**Boshqaruv hujjatlarini qabul qilish bo'yicha** Andijon (**N.Zuxriddinov**, 50%), Xorazm (**R.Matrasulov**, 71%) viloyatlari arxiv ishi hududiy boshqarmalari tomonidan o'tgan yilga nisbatan o'sishga erishilmagan, Surxondaryo (**B.Abdushukurov**) viloyati arxiv ishi hududiy boshqarmasi tomonidan joriy yil 9 oyligiga belgilangan reja (40 %) va o'tgan yilga nisbatan (38%) o'sishga erishilmagan.

Boshqaruv hujjatlarini shartnoma asosida tartibga keltirish bo'yicha Surxondaryo (**B.Abdushukurov**, 28 %), Toshkent viloyati (**D.Rayimjonov**, 35%) viloyatlari tomonidan joriy yil 9 oyligiga belgilangan reja bajarilmagan.

Arxiv ishi va ish yuritish holati ustidan davlat nazorati tadbirlarini o'tkazish bo'yicha Xorazm viloyati Arxiv ishi hududiy boshqarmasi (**R.Matrasulov**, 88%) tomonidan joriy yil 9 oyligiga mo'ljallangan reja bajarilmagan.

Sirdaryo viloyati Arxiv ishi hududiy boshqarmasi (**O'.Burxanova**) tomonidan joriy yil 9 oyida 15 ta davlat nazorati tadbirlarini o'tkazish rejalashtirilgan bo'lsada, biroq rejalashtirilmagan qo'shimcha 3 ta nazorat tadbirlari o'tkazilgan.

**Shuningdek,** Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-martdagi 174-son qarori bilan tasdiqlangan Arxiv ishi va ish yuritish holati bo'yicha davlat nazoratini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomida belgilangan vakolatlardan Arxiv ishi hududiy boshqarmalari tomonidan **to'liq foydalanilmayotganligi uchramoqda.**

**Xususan,** arxiv hujjatlarini topshirish, saqlash va ulardan foydalanishning, shuningdek, arxivlar va idoraviy arxivlar tomonidan xizmat ko'rsatishning belgilangan tartibini buzganlik holatlari aniqlanganligi holatlari yuzasidan barcha Arxiv ishi hududiy boshqarmalari tomonidan birorta ham **ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomalar tuzilmagan** va aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish masalasini ko'rib chiqish uchun belgilangan tartibda sud organlariga **yuborish choralari ko'rilmagan.**

Kun tartibidagi masala bo'yicha berilgan ma'lumotlar va bildirilgan fikr-mulohazalar muhokamasi asosida **Agentlik Hay'ati qaror qiladi:**

1. "O'zarxiv" agentligi direktori U.Yusupovning kun tartibidagi masala bo'yicha bergan axboroti va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-oktabrdagi PQ-407-son "O'zbek imo-ishora tili va Brayl alifbosini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Arxiv ishi va ish yuritish markazi direktori M.Rixsiboyevning 2022-yil 9 oyida amalga oshirilgan ishlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Andijon (**N.Zuxriddinov**), Sirdaryo (**O'.Burxanova**), Surxondaryo (**B.Abdushukurov**), Xorazm (**R.Matrasulov**), Toshkent (**D.Rayimjonov**) viloyatlari arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari, Arxiv ishi va ish yuritish markazi direktori (**M.Rixsiboyev**) belgilangan rejalari bajarilmaganligi uchun **ogohlantirilsinlar.**

4. Tashkilot va korxonalarda o'tkaziladigan arxiv ishi va ish yuritish holati ustidan davlat nazorati tadbirlarini o'rnatilgan tartibda, shaffof va adolatli o'tkazilishi, natijadorligi uchun Arxiv ishi hududiy boshqarmalar boshliqlari shaxsan javobgar ekanliklari bo'yicha **ogohlantirilsinlar.**

5. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar Arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari, O‘zbekiston milliy arxivlari hamda Arxiv ishi va ish yuritish markazi direktorlari:

2022-yilga belgilangan asosiy ko‘rsatkichlar rejalarning bajarilishini qat’iy nazoratga olsinlar;

arxiv xizmatlarini ko‘rsatilishini yanada jadallashtirish orqali arxivlarning pullik tushumlarini oshirish choralarini ko‘rsinlar;

Agentlik tizimidagi arxivlar rahbar va xodimlar uchun Arxiv ishi va ish yuritish markazida tashkil etilgan malaka oshirish kurslarda tinglovchilarni o‘z vaqtida ishtirokini ta’minlasinlar;

ommaviy axborot vositalari, jurnalistlar bilan hamkorlik ishlarini kuchaytirish, arxiv faoliyati yuzasidan keng jamoatchilikka axborotlarni yetkazish maqsadida televideniye, radio va boshqa OAVlarda 2022-yil 4-choragida chiqishlar sonini ko‘paytirish choralarini ko‘rsinlar;

2022-yil 4-choragida OAVlarda chiqishlar soni yuzasidan joriy yilning 20-dekabriga qadar Agentlikka ma’lumot kiritinlar;

**2023-yil 1-yanvarga qadar** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-oktabrdagi PQ-407-son “O‘zbek imo-ishora tili va Brayl alifbosini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorini samarali amalga oshirish bo‘yicha Nazorat rejası (“O‘zarxiv” agentligining 2022-yil 26-oktyabrdagi 197-son buyrug‘i) ijrosini to‘laqonli ta’minlasinlar;

**2022-yil 25-dekabriga qadar** Nazorat rejasida belgilangan vazifalarning ijrosi yuzasidan Agentlikka ma’lumot taqdim etsinlar.

6. “O‘zarxiv” agentligi bo‘lim boshlig‘i (Sh.Xojiboyev), Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari:

arxiv ishi va ish yuritish holati bo‘yicha davlat nazoratini amalga oshirish sifatini kuchaytirsinlar;

vazirlik va idoralar hamda ularning hududiy bo‘limlarida o‘tkazilgan tekshirishlar davomida aniqlangan **kamchiliklar, xususan**, O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi tarkibiga kiritilgan arxiv hujjatlarini belgilangan muddatlarda davlat arxivlariga **topshirmaslik**, arxiv hujjatlarining **qimmatligini aniqlash ekspertizasidan o‘tkazmaslik**, jumladan, arxiv ro‘yxatlarini tuzmaslik, hujjatlarni tartibga keltirmasdan saqlash va arxiv xonalariga bo‘lgan **talablarga rioya etmaslik, ish yuritish qoidalariga rioya etmaslik**, jumladan, ish yuritish yo‘riqnomalari, yig‘majildlar nomenklaturalari ishlab chiqilmaganligi holatlari kelgusida tashkilotlarda aniqlanishini oldini olish maqsadida davlat arxivlari tomonidan **uslubiy yordam ko‘rsatilishini tashkil etsinlar**;

tashkilot va korxonalarda davlat nazoratini amalga oshirishda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-martdagi 174-son qarori bilan tasdiqlangan Arxiv ishi va ish yuritish holati bo‘yicha davlat nazoratini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi **nizom talablariga qat’iy rioya etsinlar**;

7. “O‘zarxiv” agentligi bo‘lim boshlig‘i (Sh.Xojiboyev) **bir oy muddatda** O‘zbekiston Respublikasi “O‘zarxiv” agentligi huzuridagi Arxiv ishi va ish yuritish bo‘yicha malaka oshirish ilmiy-metodik markazida tashkil etilgan “Arxivlarda davlat nazorati va hujjatlar hisobini yuritish” mavzusi bo‘yicha birinchi navbatda boshqarma bosh mutaxassisilar malakasini oshirish yuzasidan taklif kiritin.

8. Toshkent viloyati Arxiv ishi hududiy boshqarmasi boshlig'i (**D.Rayimjonov**) **bir hafta muddatda** "O'zarxiv" agentligining 2022-yil 11-avgustdagi 152-son buyrug'iga asosan "O'zarxiv" agentligi tizimidagi arxiv rahbarlari uchun axborot-kommunikasiya texnologiyalari bo'yicha qisqa muddatli malaka oshirish kurslarida asossiz ravishda ishtirok etmagan arxiv direktorlariga nisbatan qat'iy intizomiy chora ko'rsin.

9. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar Arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari arxiv xodimlarini muntazam malaka oshirishlari uchun shaxsan javobgar ekanliklari ogohlantirilsinlar.

## **II. "O'zarxiv" agentligida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari va topshiriqlari ijrosini tashkil qilish va nazorat qilish, Agentlik tizimidagi tashkilotlarda ijro intizomi holati, uni mustahkamlash, bu borada rahbarlar mas'uliyatini kuchaytirish to'g'risida**

*(U.Yusupov, J.Xushvaqto'v, Sh.Sadikov, X.Isayev, Sh.Xojiboyev, D.Yusupov, D.Kucharova, A.Mamanazarov, D.Zakirova, U.Yusupov)*

"O'zarxiv" agentligi direktori o'rinbosari Sh.Sadikovning "O'zarxiv" agentligida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari va topshiriqlari ijrosini tashkil qilish va nazorat qilish, Agentlik tizimidagi tashkilotlarda ijro intizomi holati, uni mustahkamlash, bu borada rahbarlar mas'uliyatini kuchaytirish to'g'risidagi axboroti eshitildi.

"Ijro.gov.uz" tizimida nazoratga olinganligi va 2022-yilning 9 oyligi davomida bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlar soni **jami 54 tani** tashkil etganligi, Shundan, **47 tasi** direktor o'rinbosari Sh.Sadikovga, **7 tasi** X.Isayevga tegishli topshiriqlar bo'lib, topshiriqlarning barchasi belgilangan muddatlardan kechiktirilmasdan ijrosi ta'minlandi.

"O'zarxiv" agentligi direktor o'rinbosarlari va mas'ul bo'lgan xodimlar bilan "Ijro.gov.uz" tizimidagi bajarilishi belgilangan topshiriqlar ijro holati haftada ikki marotaba (chorshanba va juma kunlar) rahbariyat huzurida dushanba kunlari direksiya yig'ilishlarida muhokama qilinib, **aniqlangan** kamchiliklarni zudlik bilan bartaraf etish bo'yicha topshiriqlar berib borilmoqda.

2022-yilning 9 oyligi davomida Agentlikka kelib tushgan hujjatlar **3240 tani**, yuborilgan hujjatlar **1301 tani** tashkil etganligi, **177 ta** asosiy faoliyatga oid, **153 ta** shaxsiy tarkibga oid buyruqlar va **27 ta** farmoyishlar ishlab chiqilganligi;

hisobot davrida Agentlik tomonidan **136 ta**, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Qonunlari (**8 ta**), O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari (**23 ta**), O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari (**56 ta**), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari (**49 ta**) ijrosi yuzasidan tegishli hujjatlar qabul qilingan.

**Shu bilan birga**, O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2022-yil 29-avgustdagi 01/00-01/12-7791-son xati ijrosi yuzasidan Agentlik direktorining 2022-yil 29-avgustdagi 01-26/1282-son topshirig'i berilgan bo'lib **ijro muddati 2022-yil 29-sentabr** etib belgilangan (bir oy muddat) bo'lishiga shuningdek, asosiy ijrochi O.Suyunovning og'zaki ogohlantirganiga qaramasdan Arxiv ishi va ish yuritish markazi (M.Rixsiboyev) ushbu topshiriqni bajarmagan.

"O'zarxiv" agentligining 2022-yil 18-iyuldagi 01-21/982-son, 2022-yil 6-iyuldagi 01-26/1002-son, 2022-yil 7-iyuldagi 01-26/1020-son 01-26/1120-son

topshiriqlari “arxiv.ijro.uz” tizimi orqali yuborilgan bo‘lishiga qaramasdan **Arxiv ishi va ish yuritish markazi** tomonidan mazkur topshiriqlar **ijroga yo‘naltirilmagan va tizim imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmasdan kelinmoqda. Monitoring natijalariga ko‘ra Markaz tomonidan so‘ngi marta fevral oyida tizim orqali hujjat ro‘yxatdan o‘tkazilib, nazoratga qo‘yilgan.**

O‘zbekiston Ilmiy-texnika va tibbiyot hujjatlari milliy arxivi direktori (**B.Axmedov**) iyul va sentabr, O‘zbekiston Milliy arxivi (**D.Zakirova**) sentabr, O‘zbekiston Kinofotofono hujjatlari milliy arxivi (**A.Maxkamov**) avgust, Toshkent viloyati arxiv ishi hududiy boshqarmasi (**D.Rayimjonov**) iyul-avgust, Farg‘ona viloyati arxiv ishi hududiy boshqarmasi (**D.Mallayev**) sentyabr, Xorazm viloyati arxiv ishi hududiy boshqarmasi (**R.Matrasulov**) iyul, avgust oylarida O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarining ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni Agentlikka kiritmagan.

Kun tartibidagi masala bo‘yicha berilgan ma‘lumotlar va bildirilgan fikr-mulohazalar muhokamasi asosida **Agentlik Hay‘ati qaror qiladi:**

1. “O‘zarxiv” agentligi direktori o‘rinbosari Sh.Sadikovning kun tartibidagi masala bo‘yicha bergan axboroti, Davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining mas‘uliyati va javobgarligini kuchaytirish hamda ijro intizomini mustahkamlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida joriy yil 27-sentyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasida o‘tkazilgan ijro nazorati kollegial yig‘ilishi bayoni (2022-yil 28-sentyabr, № 02-RA 2/1-3042) **ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.**

2. 2022-yil oktabr-dekabr oylarida hamda 2023-yil yanvar oyi 1-dekadasida “O‘zarxiv” agentligi tarkibiy bo‘linmalari va Arxiv ishi hududiy boshqarmalari, O‘zbekiston Milliy arxivlari hamda Arxiv ishi va ish yuritish bo‘yicha malaka oshirish ilmiy-metodik markazida Ijro.gov.uz tizimidagi topshiriqlar ijrosini barvaqt ta‘minlash bo‘yicha jadval ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Toshkent (**D.Rayimjonov**), Farg‘ona (**D.Mallayev**), Xorazm (**R.Matrasulov**) viloyatlari arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari, O‘zbekiston milliy arxivlari direktorlari (**D.Zakirova**, **B.Axmedov**, **A.Maxkamov**) hamda Arxiv ishi va ish yuritish markazi direktori (**M.Rixsiboyev**):

ijro intizomi yo‘nalishida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklari uchun **ogohlantirilsinlar; bir hafta muddatda** yuqorida qayd etilgan topshiriqlar ijrochilarini va nazorat va ijro intizomiga mas‘ul shaxslarga nisbatan vakolat doirasida qat‘iy choralar ko‘rsinlar.

4. “O‘zarxiv” agentligi direktori o‘rinbosarlari (Sh.Sadikov, X.Isayev) hamda Nazorat va ijro intizomi sektori boshlig‘i (D.Yusupov):

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarori bilan belgilangan talablar asosida **topshiriqlarning o‘z vaqtida va to‘laqonli bajarilishi yuzasidan ta’sirchan choralar ko‘rsinlar;**

**topshiriqlar ijrosini amalda nazorat qilinishini shaxsan tashkil etsinlar,** bunda markaziy apparat, hududiy boshqarmalar va O‘zbekiston milliy arxivlarida ishlarning real holatini tanqidiy o‘rganishga e’tibor qaratsinlar;

topshiriqlar ijrosi amalda nazorat qilinishini shaxsan tashkil etish, bunda **“ishni jamoa bajaradi, mas‘uliyat esa shaxsiy”** degan prinsipial qoidaga amal qilish choralarini ko‘rsinlar;

**normativ huquqiy hujjat loyihalarini** Hukumatga kiritishdan oldin **O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o‘rinbosarlari va maslahatchilari huzurida himoya qilish** amaliyotini davom ettirsinlar hamda Vazirlar Mahkamasi Reglamentiga muvofiq, **hujjat loyihalarini faqatgina birinchi rahbar imzosi bilan Hukumatga kiritish** talabiga qat’iy amal qilish;

**Normativ huquqiy hujjat loyihalarini**, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **hududlarga tashrif bayoni loyihasini** moliyaviy, iqtisodiy va huquqiy ekspertizadan o‘tkazish jarayonida loyihada nazarda tutilgan topshiriqlarni bajarish uchun **zarur resurs va imkoniyatlar mavjudligi, ijro muddatlari to‘g‘ri va oqilona belgilanishiga** alohida e’tibor qaratish;

topshiriqlarni bajarish bo‘yicha nazorat va hisobdorlikni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarori bilan **belgilangan tartibga qat’iy amal qilgan holda tashkil etsinlar.**

5. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari, O‘zbekiston milliy arxivlari va Arxiv ishi va ish yuritish markazi direktorlari:

hisobot davrida kelib tushgan O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident Farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlari bilan ishlashda, Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-yanvardagi 12-son qarori talablariga hamda ijro intizomi va ish yuritishni tashkil etishda Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 29-martdagi 140-son qaror talablariga muvofiq ishlarni tashkil qilish va ijro intizomining ahvoli monitoringini olib borish tartibiga qat’iy rioya etilishiga e’tibor qaratsinlar;

tasarrufidagi quyi tashkilotlarda ijro intizomi holatini muntazam ravishda o‘rgansinlar va nazoratga olgan holda natijadorligini oshirish yuzasida yig‘ilishlarda tanqidiy muhokama qilib borsinlar;

hujjatlarni ro‘yxatga olish va ijro intizomini ta’minlash tizimining mavjud kamchiliklarini chuqur tahlil qilgan holda amaldagi tartibning buzilishiga yo‘l qo‘ygan mas’ul xodimlarga nisbatan o‘rnatilgan tartibda ta’sirchan choralar ko‘rsinlar;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarorlarida belgilangan tartibga asosan Ish yuritish va ijro intizomini tashkil etish bo‘yicha yo‘riqnomalarini mazkur hujjatlarga muvofiqlashtirish choralari ko‘rsinlar.

6. Nazorat va ijro intizomi sektori boshlig‘i (D.Yusupov):

“O‘zarxiv” agentligi tizim tashkilotlarida ijro intizomini ta’minlash va ish yuritishni tashkil etishda metodik ko‘maklashish amaliyotini davom ettirsin;

O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlari bilan ishlashda kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan rahbarlarga **intizomiy jazo choralari**ni qo‘llash to‘g‘risida takliflarni “O‘zarxiv” agentligi direktoriga kiritib borsin.

7. “O‘zarxiv” agentligi direktori o‘rinbosarlari (Sh.Sadikov, X.Isayev) barcha bo‘lim boshliqlari va mas’ul xodimlar o‘zlarining xulq-atvori, yurish-turishi, madaniyati bilan qo‘l ostidagilarga shaxsiy o‘rnak bo‘lishlari, mas’uliyat va javobgarlikni, har bir noqonuniy xatti-harakat uchun jazo muqarrarligini chuqur his etgan holda faoliyatini tashkil etishi lozimligi ko‘rsatib o‘tilsin.



### III. “O‘zarxiv” agentligi va uning tizimidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari hamda so‘rovlar ijrosi holati to‘g‘risida

*(U.Yusupov, J.Xushvaqto'v, Sh.Sadikov, X.Isayev, Sh.Xojiboyev, N.Anarkulova, D.Kucharova, A.Mamanazarov, D.Zakirova, U.Yusupov)*

“O‘zarxiv” agentligi direktori o‘rinbosari Sh.Sadikovning “O‘zarxiv” agentligi va uning tizimidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari hamda so‘rovlar ijrosi holati to‘g‘risidagi axboroti eshitildi.

“O‘zarxiv” agentligi rahbariyati tomonidan 2022-yil 9 oy davomida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlardagi tuman, shaharlarda jismoniy va yuridik shaxslarni sayyor qabuli jadvaliga asosan **18 ta** (2021-yil 9 oyligida 18 ta) sayyor va shaxsiy qabullar o‘tkazilib, ularda **124 nafar** (2021-yil 9 oyligida 115 ta **107%**) fuqarolar murojaatlari ko‘rib chiqildi.

Agentlikka joriy yilning 9 oyligi davomida jismoniy va yuridik shaxslardan jami **794 ta** (2021-yil 9 oyligida 673 ta, **118%**) jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti virtual qabulxonasi orqali **473 ta** (567 ta, **83%**), Sayyor va shaxsiy qabullardan **124 ta** (115 ta, **107%**), Agentlikka to‘g‘ridan to‘g‘ri yozma **180 ta** (98 ta, **184%**), Mas‘ul xodimlar qabuli **9 ta**, idoraviy aloqa markazidan (ishonch telefoni) **8 ta** (8 ta, **100%**) murojaatlar ko‘rib chiqildi.

Respublika davlat arxivlariga jami jismoniy va yuridik shaxslardan **1 979 ta** (2021-yil 9 oyligida 3 919 ta, **54%**) murojaatlar kelib tushgan hamda o‘rnatilgan tartibda ko‘rib chiqilgan, shundan **956 ta** (2888 ta, **33%**) murojaat qanoatlantirilgan, **818 tasi** (370 ta, **221%**) tushuntirish berilgan, **179 tasi** (172 ta, **104%**) tegishliligi bo‘yicha boshqa tashkilotga yuborilgan bo‘lib, **26 ta** murojaat ijrosi bajarilmoqda.

2022-yilning 9 oyligi davomida Respublika arxivlariga **67 248 ta mavzuli** (2021-yil 9 oyligida 108 744 ta, **62%**), **314 975 ta ijtimoiy-huquqiy** mazmundagi (572 068 ta, **55%**) so‘rovlar (shundan davlat arxivlariga 158 154 ta (304 451 ta, **51%**), shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlariga 156 821 ta (267 617 ta, **58%**) kelib tushgan.

Davlat xizmatlari markazlari (DXM) va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YAIDXP) orqali **210 672 ta** (2021-yil 9 oyligida 431 872 ta, **48%**), Pochta va elektron pochta orqali **42 013 ta** (26 929 ta, **156%**) ijtimoiy-huquqiy mazmundagi so‘rovlar kelib tushgan bo‘lsa, **62 290 nafar** (113 267 nafar, **55%**) fuqaro bevosita arxivga **murojaat qilgan**.

Arxiv hujjatlari asosida **243 958 ta** (2021-yil 9 oyligida 416 553 ta, **58%**) so‘rovlar ijrosi bajarilib, ulardan **224 086 tasi** (386 948 ta, **58%**) ijobiy, **19 872 tasi** (29 605 ta, **67%**) bo‘yicha esa tegishli ko‘rsatma va tushuntirishlar berilgan. Tashkilot hujjatlari arxiv saqloviga kelib tushmagan va taalluqligi bo‘yicha tegishli tashkilotlarga yuborilgan so‘rovlar soni **63 678 tani** (145 990 ta, **43%**) tashkil etdi.

Joriy yil 9 oy davomida DXM va YAIDXP orqali jami **86 444 ta** xizmatlar ko‘rsatilgan, jumladan, ish haqi va ish stajini tasdiqlash haqida arxiv ma‘lumotnomasini berish – **42 684 ta**, oliy va o‘rta maxsus ta‘lim muassasasida o‘qiganlikni tasdiqlash haqidagi arxiv ma‘lumotnomasini berish – **10 730 ta**, yaroqsiz holatga kelgan yoki yo‘qotilgan mehnat daftarchasidagi yozuvlarni tasdiqlash – **11 153 ta**, mavzuli so‘rovlarni ijro etish – **20 018 ta**, mavzuli so‘rovlarni ijro etish tezlashtirilgani – **1 460 ta**, davlat arxivlari o‘quv zallarida arxiv hujjatlaridan foydalanishga ruxsatnoma berish bo‘yicha – **399 ta** so‘rovlar kelib tushgan.

Agentlik tizimidagi arxiv muassasalarida bugunga qadar, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqishda kamchilik hamda huquqbuzarlikka yo‘l

qo'yganliklari uchun **2 nafar** rahbar va mas'ul xodimlarga jiddiy ogohlantirish berilib, **23 nafar** rahbar va 14 nafar mas'ul xodimlar intizomiy javobgarlikka tortilgan.

Shuningdek, Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligining 2022-yil 20-sentyabrdagi 23/7-533/8-son taqdimnoma yuzasidan Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 23-sentabrdagi 597-son qarori bilan tasdiqlangan Yaroqsiz holatga kelgan yoki yo'qotilgan mehnat daftarchasidagi yozuvlarni tasdiqlash bo'yicha hamda Mavzuli so'rovlarni ijro etish bo'yicha davlat xizmati ko'rsatishning ma'muriy reglamentlarida belgilangan ayrim tartiblariga rioya etilmaganligi holatlari aniqlanganligi. Yaroqsiz holatga kelgan yoki yo'qotilgan mehnat daftarchasidagi yozuvlarni tasdiqlash bo'yicha – 64 ta hamda mavzuli so'rovlarni ijro etish bo'yicha – 114 ta shuningdek, tezlashtirilgan tartibda mavzuli so'rovlarni ijro etish bo'yicha – 231 ta, jami 409 ta so'rovlar bo'yicha ko'rsatilgan davlat xizmatlarida qonunchilik hujjatlari buzilgan.

Davlat arxivlarida davlat xizmatini ko'rsatishda qonunchilik hujjatlari buzilishiga yo'l qo'yilishi aniqlangan holatlar bo'yicha jami 40 nafar, jumladan, Toshkent shahar (5 nafar), Andijon (11 nafar), Surxondaryo (8 nafar), Samarqand (4 nafar), Buxoro (3 nafar), Qashqadaryo, Xorazm, Toshkent (2 nafardan), Sirdaryo, Jizzax (1 nafardan) viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi (1 nafar) arxivlarining mas'ul xodimlariga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llanilgan.

Kun tartibidagi masala bo'yicha berilgan ma'lumotlar va bildirilgan fikr-mulohazalar muhokamasi asosida **Agentlik Hay'ati qaror qiladi:**

1. "O'zarxiv" agentligi direktori o'rinbosari Sh.Sadikovning kun tartibidagi masala bo'yicha bergan axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. "O'zarxiv" agentligi direktori o'rinbosari (Sh.Sadikov), bo'lim boshlig'i (N.Anarkulova), Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari, O'zbekiston milliy arxivlari hamda Arxiv ishi va ish yuritish markazi direktorlari "O'zarxiv" agentligi va uning hududiy va tizim tashkilotlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni tizimli tashkil etish, murojaatlarni ko'rib chiqishning natijadorligini ta'minlash uchun:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Oliy Majlisi palatalari, Vazirlar Mahkamasi topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli ijrosini ta'minlash choralarini ko'rsinlar;

jismoniy va yuridik shaxslarning har bir murojaatini o'z vaqtida, qonunchilik talablariga qat'iy amal qilgan holda ko'rib chiqilishi yuzasidan yanada talabchanlikni kuchaytirsinlar;

jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarining, shuningdek takroriy murojaatlarning ko'payishi sabablarini o'rganish hamda kelgusida ularni kamaytirish, murojaatlarni ko'rib chiqish muddatlarining asossiz buzilishiga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rsinlar;

joylardagi tizimli muammolarni aniqlab, ularni hal etish choralarini ko'rsinlar, murojaatlarni, ayniqsa takroriylarining har birini, o'z vaqtida sifatli ko'rib chiqish yuzasidan nazorat ishlarini kuchaytirsinlar;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqishda mas'uliyatsizlik va yuzakichilikka yo'l qo'ygan mas'ul shaxslarga nisbatan keskin choralar ko'rsinlar;

rahbarlar tomonidan joylarda jismoniy va yuridik shaxslarning (vakillari) bilan tasdiqlangan jadval asosida sayyor qabullar o'tkazish amaliyotini davom ettirsinlar, qabullarda ko'tarilgan masalalar o'z vaqtida to'liq va sifatli ko'rib chiqilishini ta'minlasinlar, muammolarni imkon qadar joyida hal etish choralarini ko'rsinlar;

Hay'at, direksiya yig'ilishlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bo'yicha ishlarning ahvolini muntazam muhokama etib borish va tegishli tarkibiy tuzilmalarda monitoringlar o'tkazsinlar, qonunda belgilangan talablarni buzgan mas'ul xodimlarga nisbatan keskin choralar ko'rib borsinlar;

murojaatlar bo'yicha ish yuritishni yanada takomillashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini samarali joriy etish, murojaatlar bilan ishlash bo'yicha mas'ul xodimlarning malakasini oshirish choralarini ko'rsinlar;

tizim tashkilotlariga nisbatan murojaatlar bilan ishlash bo'yicha talabchanlikni oshirish, ularga doimiy amaliy yordamlar ko'rsatish va tavsiyalar berib borish choralarini ko'rsinlar.

#### **IV. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-fevraldagi "Yer uchastkalaridan foydalanishda davlat nazoratini samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-138-son qarori ijrosi hamda Davlat arxivlari tomonidan "Davlat arxivlarida raqamlashtirilayotgan hujjatlarni yagona saqlovini ta'minlash hamda ulardan foydalanish" axborot tizimiga ma'lumotlarni kiritish holati to'g'risida**

*(U.Yusupov, J.Xushvaqtoy, Sh.Sadikov, X.Isayev, Sh.Xojiboyev, A.Ziyatdinov, D.Kucharova, A.Mamanazarov, D.Zakirova, U.Yusupov)*

"O'zarxiv" agentligi direktori X.Isayevning va Agentlik bo'lim boshlig'i A.Ziyatdinovning O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-fevraldagi "Yer uchastkalaridan foydalanishda davlat nazoratini samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-138-son qarori ijrosi hamda Davlat arxivlari tomonidan "Davlat arxivlarida raqamlashtirilayotgan hujjatlarni yagona saqlovini ta'minlash hamda ulardan foydalanish" axborot tizimiga ma'lumotlarni kiritish holati to'g'risidagi axboroti eshitildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-fevraldagi PQ-138-son qarori ijrosi bo'yicha "O'zarxiv" agentligi tomonidan kunlik monitoring tashkil etilgan.

2022-yil 27-oktabr holatiga respublika bo'yicha davlat arxivlari tomonidan xatlovdan o'tkazilgan jami qarorlar (qaror, bayonnoma, buyruq va boshqalar) **641 934 tani** tashkil etgan, shu jumladan:

- hokimlik qarorlari – **564 924 ta (88%)**;
- o'zini-o'zi boshqarish organlarining qarori – **38 302 ta (6%)**;
- kolxoz va sovxozlarning yer ajratish to'g'risidagi bayonnoma va buyruqlari – **38 316 ta (6%)**.

Xatlov natijasida aniqlangan qarorlarning jami **461 657 tasining (72%)** elektron nusxasi yaratilib, jami raqamlashtirilgan kadrlar – **1,7 mln. tani** tashkil etdi.

Raqamlashtirilgan hujjatlarning elektron nusxalari yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarning davlat ro'yxatidan o'tkazilishini ta'minlash uchun xatlov natijasida aniqlangan qarorlarning jami **434 015 tasining (94%)** elektron nusxasi tuman sektor rahbarlariga taqdim etildi.

Shu bilan birga, "Davlat arxivlarida raqamlashtirilayotgan hujjatlarni yagona saqlovini ta'minlash hamda ulardan foydalanish" axborot tizimiga foydalanish uchun 450 nafarga yaqin arxiv xodimlariga kirishga ruxsat berilib, ma'lumotlarni (fond, ro'yxat, saqlov birligi, hujjat, bibliografiya) kiritish ishlarini jadallashtirish bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rilmogda.

2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra O'zbekiston milliy arxivlari va davlat arxivlari tomonidan tizimda jami **44952 ta fond, 33204 ta ro'yxat, 216750 saqllov birligi va 12016 ta hujjat** yaratilgan.

Kun tartibidagi masala bo'yicha berilgan ma'lumotlar va bildirilgan fikr-mulohazalar muhokamasi asosida **Agentlik Hay'ati qaror qiladi:**

1. "O'zarxiv" agentligi direktori o'rinbosari X.Isayev va Agentlik bo'lim boshlig'i (A.Ziyatdinov)ning kun tartibidagi masala bo'yicha bergan axborotlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-fevraldagi PQ-138-son qarori ijrosi bo'yicha bajarilmaslik xavfi yuqori bo'lgan Jizzax (**S.Avliyaxonov**), Sirdaryo (**O'.Burxanova**) va Qashqadaryo (**S.Babaqulov**) viloyatlari arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlarining ushbu yo'nalishdagi ishlari sust deb baholansin.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari, barcha davlat arxivlari direktorlari:

davlat arxivlari saqloviga berilgan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining yer uchastkalari berish to'g'risidagi qarorlari, kolxozlar a'zolarining umumiy majlislari bayonnomalari, sovxozlar va boshqa qishloq xo'jaligi tashkilotlarining buyruqlari xatlovdan o'tkazish va ularning elektron nusxalarini yaratish ishlarini **2022-yil 25-noyabrga qadar** yakunlasinlar va mazkur muddatga qadar tuman (shahar) sektor rahbarlari hamda hokim yordamchilariga o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan holda taqdim etilishini ta'minlasinlar;

topshiriq ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar haqida Agentlikka **2022-yil 28-noyabrga qadar** axborot taqdim etsinlar;

topshiriq ijrosini ta'minlamaganlik holatida arxiv ishi hududiy boshqarmalari va davlat arxivlari boshliqlariga nisbatan qonunchilikka binoan intizomiy jazo chorasi qo'llanilishi haqida ogohlantirilsinlar.

4. Arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari, O'zbekiston milliy arxivlari direktorlari "Davlat arxivlarida raqamlashtirilayotgan hujjatlarni yagona saqlovini ta'minlash hamda ulardan foydalanish" axborot tizimiga ma'lumotlarni (fond, ro'yxat, saqllov birligi, hujjat, bibliografiya) kiritish ishlarini jadallashtirish bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rsinlar.

5. "O'zarxiv" agentligi direktori o'rinbosari (X.Isayev), bo'lim boshlig'i (A.Ziyatdinov), Bosh buxgalter (F.Suyunov) 2022-yil 3-chorakda "Davlat arxivlarida raqamlashtirilayotgan hujjatlarni yagona saqlovini ta'minlash hamda ulardan foydalanish" axborot tizimiga ma'lumotlarni kiritish bo'yicha eng faol xodimlarni moddiy rag'batlantirish yuzasidan takliflar kiritsinlar.

## **V. "O'zarxiv" agentligi tizimidagi shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari faoliyati tahlili to'g'risida**

*(U.Yusupov, J.Xushvaqtov, Sh.Sadikov, X.Isayev, Sh.Xojiboyev, L.Mirzayev, D.Kucharova, A.Mamanazarov, D.Zakirova, U.Yusupov)*

"O'zarxiv" agentligi bosh mutaxassisi L.Mirzayevning "O'zarxiv" agentligi tizimidagi shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari faoliyati tahlili to'g'risidagi axboroti eshitildi.

Tahlil natijasiga ko'ra, respublika bo'yicha 120 ta shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari mavjud bo'lib, 119 tasi faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Mazkur arxivlarda jami 3,771 mln. saqlov birligidagi, shulardan 3,519 mln. s.b. shaxsiy tarkib, 48,381 ming s.b. boshqaruv, 202,960 ming s.b. vaqtincha saqlovdagi hujjatlar saqlanmoqda. Shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlarining 54 tasi o'z balansidagi binolarda, 9 tasi ijara asosida, 20 tasi davlat arxivlar va 36 tasi boshqa tashkilotlar binolaridan beg'araz foydalanib, faoliyat yuritmoqdalar. Respublika shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlarida jami 536 nafar xodimlar mehnat qilib kelmoqda. **Respublika shaxsiy tarkib** hujjatlari davlat arxivlari tomonidan 2022-yil 9 oyida 10,263 mlrd so'm daromad qilingan.

Joriy yilda 2 ta moliyaviy imkoniyatlari yaxshi bo'lmagan Buxoro viloyati Peshku tumani va Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumani shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari mahalliy davlat hokimliklarining qarorlariga ko'ra tegishli davlat arxivlariga qo'shib yuborilgan. Shuningdek, Navoiy viloyati Uchquduq tumani shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi faoliyati to'xtatilgan.

**Shu bilan birga**, 2022-yil 9 oyida Qoraqalpog'iston Respublikasi Shumanay tumani (31,7 mln. so'm), Andijon v. Jalaquduq (19,9 mln. so'm), Ulug'nor (34 mln. so'm), Xo'jaobod (37 mln. so'm) tumanlari, Jizzax v. barcha shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari (50 mln. so'mdan kam), Qashqadaryo v. Qarshi (44,6 mln. so'm), Kasbi (mln. so'm), Mirishkor (46 mln. so'm), Qamashi (44,7 mln. so'm) tumanlari, Namangan v. Uychi tumani (46,8 mln. so'm), Navoiy v. Navbahor (42,1 mln. so'm), Xatirchi (10,3 mln. so'm), Konimex (10 mln. so'm) tumanlari, Samarqand v. Kattaqo'r sh. (44 mln. so'm), Sirdaryo v. Boyovut (22 mln. so'm), Oqoltin (42,3 mln. so'm), Guliston (36,5 mln. so'm) tumanlari, Surxondaryo v. Angor (28 mln. so'm), Qiziriq (16 mln. so'm), Qo'mqo'rg'on (48 mln. so'm) tumanlari, Farg'ona v. Uchko'prik (24,6 mln. so'm), O'zbekiston (47,5 mln. so'm), Farg'ona (35 mln. so'm), Buvayda (30,4 mln. so'm) tumanlari, Xorazm v. Urganch (34,6 mln. so'm), Qo'shko'pir (28,7 mln. so'm) tumanlari, Toshkent v. Piskent (41,2 mln. so'm), Chinoz (43,2 mln. so'm) **tumanlari shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlarining moliyaviy ko'rsatkichi qoniqarli darajada emas.**

Qoraqalpog'iston Respublikasi (3,8 mln. so'm), Andijon (45,9 mln. so'm), Jizzax (8,9 mln. so'm), Qashqadaryo (5,4 mln. so'm), Namangan (20 mln. so'm), Navoiy (2,8 mln. so'm), Samarqand (8,3 mln. so'm), Sirdaryo (54,9 mln. so'm), Surxondaryo (25 mln. so'm), Farg'ona (10,2 mln. so'm), Toshkent (43,6 mln. so'm) viloyatlaridagi shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlarining **soliq, oylik maosh va kommunal qarzdorliklari mavjud.**

Bundan tashqari, Andijon v. Marxamat, Qo'rg'ontepa, Izboskan, Oltinko'l, Shahrixon tumanlari, Buxoro v. Qorako'l tumani, Navoiy v. Konimex tumani, Namangan viloyati Uchqo'rg'on tumanlari shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari Farg'ona v. Farg'ona shahar, Xorazm v. Yangibozor, Xonqa, Xiva tumanlari, Toshkent v. Olmaliq va Chirchiq shaharlari shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari byudjetdan ta'minlanadigan davlat arxivlari bilan **bitta binoda, shuningdek**, Namangan viloyati Chust tumani shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi Chust tumani davlat arxivi joylashgan hududda (*bitta maydonda*) **faoliyat yuritmoqdalar.**

Kun tartibidagi masala bo'yicha berilgan ma'lumotlar va bildirilgan fikr-mulohazalar muhokamasi asosida **Agentlik Hay'ati qaror qiladi:**

1. "O'zarxiv" agentligi bosh mutaxassisi L.Mirzayevning kun tartibidagi masala bo'yicha bergan axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari:

**o‘n kun muddatda** tizimdagi moliyaviy holati yomon shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlarini kelgusidagi faoliyat yuritish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqsinlar va Agentlikka taqdim etsinlar;

**bir oy muddatda** shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlarining soliq, oylik maosh va kommunal to‘lovlaridan qarzdorliklarini qoplash choralari ko‘rsinlar;

**bir oy muddatda** moliyaviy holati yomon hamda byudjetdan ta‘minlanayotgan davlat arxivlari bilan bitta binoda faoliyat yuritayotgan shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari faoliyatini qayta tashkil etish (qo‘shib yuborish) bo‘yicha Agentlikka asosli takliflar taqdim etsinlar;

shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlarini tugatish ishlari eng so‘ngi chora sifatida ko‘rish lozimligi haqida ogohlantirilsinlar.

3. Navoiy viloyati Arxiv ishi hududiy boshqarmasi boshlig‘i (S.Bekova) **bir hafta muddatda** Uchquduq tumani shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi faoliyatini tugatish bilan bog‘liq muammolarni asoslantiruvchi hujjatlar bilan Agentlikka taqdim etsin.

4. Agentlik direktori o‘rinbosari (Sh.Sadikov), bosh mutaxassis (L.Mirzayev) va Navoiy viloyati Arxiv ishi hududiy boshqarmasi boshlig‘i (S.Bekova) **2022-yil yakuniga qadar** faoliyati to‘xtatilgan Uchquduq tumani shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivini tugatish bo‘yicha hujjatlarni tayyorlasinlar.

## **VI. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-sentabrdagi PQ-4463-son “O‘zbekiston Respublikasi “O‘zarxiv” agentligi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori ijrosini tahlil natijalari haqida**

*(U.Yusupov, J.Xushvaqto‘v, Sh.Sadikov, X.Isayev, Sh.Xojiboyev, D.Yusupov, D.Kucharova, A.Mamanazarov, D.Zakirova, U.Yusupov)*

“O‘zarxiv” agentligi direktori o‘rinbosari Sh.Sadikovning O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-sentabrdagi PQ-4463-son “O‘zbekiston Respublikasi “O‘zarxiv” agentligi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori ijrosini tahlil natijalari haqidagi axboroti eshitildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishi va ish yuritishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5834-son Farmoni ijrosini ta‘minlash bo‘yicha **jami 9 ta** topshiriq nazoratga olingan bo‘lib, ulardan **jami 8 ta** topshiriqlar ijrosi o‘z vaqtida sifatli ijrosi ta‘minlangan. Bugungi kunda Farmonning 9.1-bandi **“Agentlik 2023-yil 1-yanvargacha bosqichma-bosqich davlat arxivlari saqlovida bo‘lgan shaxsiy tarkib hujjatlarini shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlariga o‘tkazish choralari ko‘rish”** bo‘yicha ishlar olib borilmoqda va topshiriqning ijro etilishi bo‘yicha yakuniy muddat 2023-yil 1-yanvarga belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-sentabrdagi PQ-4463-son “O‘zbekiston Respublikasi “O‘zarxiv” agentligi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta‘minlash bo‘yicha jami 25 ta topshiriq nazoratga olingan bo‘lib 2022-yil 9 oyligi yakuni bo‘yicha **18 ta** topshiriqlar ijrosi o‘z vaqtida ta‘minlangan. Xususan Davlat arxivlari tomonidan ko‘rsatiladigan jami **8 ta** davlat xizmati to‘liq raqamlashtirilib, onlayn xizmat ko‘rsatishga o‘tkazildi.

Arxiv ishi jarayonlarini to'liq raqamlashtirishga mo'ljallangan va interaktiv qidiruv imkoniyatlari mavjud bo'lgan "Arxiv ishi" yagona axborot tizimi (my.archive.uz) yaratilib, xizmat ko'rsatish muddatlari **30 kundan 5 ish kunigacha** qisqartirishga erishildi. "Davlat arxivlarida raqamlashtirilayotgan hujjatlarni yagona saqlovini ta'minlash hamda ulardan foydalanish" axborot tizimi yaratilib, mazkur tizimda **44,5 mingta** fond, **30,9 mingta** ro'yxat kiritish orqali qog'oz kartochkalar yuritish amaliyoti bekor qilinishiga erishildi. O'zbekiston Milliy arxivi saqlovidagi **1917-yilgacha** bo'lgan **264 saqlov birligidan 600 varaqdan** iborat arxiv hujjatlari maxfiylikdan chiqarilib, arxivlarga tashrif buyuruvchi tadqiqotchilar soni **2 barobarga** oshishiga erishildi. Davlat arxivlari tomonidan ko'rsatiladigan pullik xizmatlarning yagona narxnomasi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etish natijasida arxivlarning pullik xizmatlari o'tgan 3 yilga nisbatan **1,5 barobarga** ortishiga erishildi.

Nazoratdagi **7 ta topshiriqning** ijrosi bo'yicha tegishli ishlar amalga oshirilmoqda va ularning ijro etish muddatlari 2025-yil dekabr oyi etib belgilangan. Ushbu qarorning 2.7.2, 2.8.2, 2.9.2, 2.10.2 va 4.15.4-bandlari ijrosini ta'minlashda quyidagi muammolar mavjud:

2020-2025-yillarda davlat arxivlari binolari va saqlovxonalarini qurish dasturida 2020 va 2021-yillarda hududlarda arxiv binolarini qurish belgilangan.

Biroq qurilish bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi (muddat-2021-yil), Namangan (muddat-2020-yil) va Samarqand viloyatlarida (muddat-2021-yil) qurilish ishlari boshlanmagan.

Milliy arxivlarni alohida qimmatli hujjatlar restavratsiyasi bo'yicha zamonaviy uskunalar bilan ta'minlash hamda raqamlashtirish uskunalar bilan jihozlash, shu jumladan hujjatlarni raqamlashtirish (elektron shaklga o'tkazish) uchun skaner, 1 ta film-skaner, 3 ta server, 200 ta kompyuter qurilmalari bilan ta'minlash, shuningdek, 3 ta restavratsiya laboratoriyalarini tashkil etishda **kechikish xavfi mavjud**.

Arxiv ishi va ish yuritish sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish borasida respublika milliy arxivlarida 30 tadan, viloyat davlat arxivlarida 10 tadan shtat birligidan iborat arxiv hujjatlarini raqamlashtirish (elektron shaklga o'tkazish) sektorlarini tashkil etish hamda mutanosib ravishda raqamlashtirish qurilmalari bilan ta'minlashda kechikish xavfi mavjud. Shuningdek, mazkur qarorning 4.17.4 va 4.18.4-bandlari bo'yicha tegishli ishlar amalga oshirilmoqda va qarorda belgilangan muddatlarda ijrosini ta'minlashga erishiladi.

Shuningdek, ushbu qaror 4-ilovasi 21-bandida davlat arxivlari saqlorida bo'lgan shaxsiy tarkib hujjatlarini shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlariga o'tkazish choralari ko'rish, shu jumladan 2019-yil yakuniga qadar — kamida 10 foizini o'tkazish, 2020-yil yakuniga qadar — 40 foizini va 2022-yil yakuniga qadar — 100 foizini o'tkazish bo'yicha vazifa belgilangan.

Kun tartibidagi masala bo'yicha berilgan ma'lumotlar va bildirilgan fikr-mulohazalar muhokamasi asosida **Agentlik Hay'ati qaror qiladi**:

1. "O'zarxiv" agentligi direktori o'rinbosari Sh.Sadikovning kun tartibidagi masala bo'yicha bergan axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar arxiv ishi hududiy boshqarmasi boshliqlari:

**2022-yil 20-noyabrga qadar** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-sentabrdagi PQ-4463-son qarori 4-ilovasi 21-bandida belgilangan vazifalarni o'z muddatida yakunlash maqsadida **viloyat davlat arxivlarida** saqlanayotgan shaxsiy

tarkib hujjatlarini shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlariga 100 foiz o'tkazish choralari ko'rsinlar;

**2022-yil 25-noyabrga qadar** amalga oshirilgan ishlar bo'yicha asoslantiruvchi hujjatlarni ilova qilgan holda ma'lumotlarni Agentlikka taqdim etsinlar.

## **VII. “O‘zarxiv” agentligi tizimidagi davlat arxivlarining kuz-qish mavsumiga tayyorgarligi holati to‘g‘risida**

*(U.Yusupov, J.Xushvaqtov, Sh.Sadikov, X.Isayev, Sh.Xojiboyev, A.Fayzullayev, D.Kucharova, A.Mamanazarov, D.Zakirova, U.Yusupov)*

“O‘zarxiv” agentligi bo‘lim boshlig‘i A.Fayzullayevning “O‘zarxiv” agentligi tizimidagi davlat arxivlarining kuz-qish mavsumiga tayyorgarligi holati to‘g‘risidagi axboroti eshitildi.

O‘zbekiston Respublikasi “O‘zarxiv” agentligi tomonidan respublika arxiv muassasalarida 2022-2023-yil kuz-qish mavsumiga tayyorgarlikni o‘z vaqtida samarali tashkil etish yuzasidan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilgan.

Davlat arxivlarida yong‘in xavfsizligini ta‘minlash va yong‘in kelib chiqish holatlarining oldini olishga qaratilgan choralarni yanada kuchaytirish maqsadida fuqarolarning hayoti hamda sog‘lig‘ini himoya qilish, davlat mulkini, O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi hujjatlarini, shuningdek arxivlarda saqlanayotgan boshqa arxiv hujjatlari va mulklarni himoya qilishga qaratilgan, O‘zbekiston Respublikasi davlat arxivlari, shu bilan birga ulardagi lavozim egalari va xodimlari tomonidan qo‘llash va ijro etish uchun umumiy bo‘lgan yong‘in xavfsizligi talablarini belgilab beruvchi **“O‘zbekiston Respublikasi davlat arxivlarida yong‘in xavfsizligi qoidalari”** ishlab chiqilib, Agentlikning 2021-yil 1-iyundagi 205-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi 536-son qaroriga muvofiq “O‘zarxiv” agentligining 2022-yil 3-oktabrdagi 180-son buyrug‘i tasdiqlanib, unga muvofiq arxiv rahbarlariga tegishli topshiriqlar berilgan.

**Joriy yil 20-sentabr kuni** O‘zbekiston Milliy arxivining mas‘ul xodimlarini Toshkent shahar Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi hamda Toshkent shahar Sog‘liqni saqlash Bosh boshqarmasi mas‘ullari tomonidan attestatsiyadan o‘tkazilgan.

Arxiv ishi hududiy boshqarmalari tizimidagi davlat arxivlari va O‘zbekiston milliy arxivlari binolarini kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik chora-tadbirlariga **jami 850,159 mln. so‘m mablag‘ ajratilgan.**

Xususan, O‘zbekiston Milliy arxivi 24,2 mln. so‘m, O‘zbekiston Ilmiy-texnika va tibbiyot hujjatlari milliy arxivi 6 mln. so‘m, O‘zbekiston Kinofotofono hujjatlari milliy arxivi 30 mln. so‘m, Qoraqalpog‘iston Respublikasi 22,516 mln. so‘m, Andijon viloyati 240,6 mln. so‘m, Buxoro viloyati, 345,6 mln. so‘m, Jizzax viloyati 15 mln. so‘m, Qashqadaryo viloyati 16 mln. so‘m, Navoiy viloyati 15,9 mln. so‘m, Namangan viloyati 2,5 mln. so‘m, Samarqand viloyati 22,850 mln. so‘m, Sirdaryo viloyati 22,45 mln. so‘m, Surxondaryo viloyati 39,3 mln. so‘m, Farg‘ona viloyati 5,1 mln. so‘m, Xorazm viloyati 30,64 mln. so‘m, Toshkent viloyati 8,174 mln. so‘m, Toshkent shahar 3,320 mln. so‘m mablag‘ ajratilgan.

**Shu bilan birga, Andijon viloyati** Izboskan tumani davlat arxiviga tabiiy gaz tarmog‘i tortilgan, lekin **isitish tizimini ishlatish uchun tabiiy gaz mavjud emas.**

**Namangan viloyati** davlat arxivida fuqarolar qabulxonasini isitish, Chortoq, Chust, Uychi tumanlari davlat arxivlarida **qo‘shimcha dvijok o‘rnatish** muammolari mavjud.



**Sirdaryo viloyati** Sirdaryo tumani davlat arxivi binosining **tom qismi** (harbiy qismdagi yong'in ta'sirida) **shikastlangan.**

**Surxondaryo viloyati** Boysun, Denov, Sho'rchi, Sariosiyo va Uzun tumanlari davlat arxivlarida **tabiiy gaz mavjud emas** va arxiv xonlari konditsionerlar bilan isitilayotganligi, elektr energiyasini kuchlanishi past bo'lishi oqibatida konditsionerlar yaxshi ishlamasligi muammosi mavjud. Arxiv binolarini isitish faqatgina konditsionerlar orqali amalga oshirilayotganligi sababli Angor, Jarqo'rg'on, Muzrabot, Sherobod tumanlari arxivlarida belgilangan me'yordan ko'p **elektr energiyasidan foydalanilayotganligi va** natijada smeta xarajatlari ortib bormoqda.

Toshkent viloyati, Qibray tumani va Olmaliq shahar davlat arxivlarida kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha **chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilmagan.** Angren, Bekobod shahar davlat arxivlarida **isitish tizimi mavjud emasligi sababli,** xodimlar xonalari elektr isitgich vositalari bilan ta'minlangan. Yangiyo'l shahar davlat arxivi binosi tom qismidan yomg'ir vaqtida chakka o'tish **muammosi mavjud.**

**Toshkent shahar arxiv ishi hududiy boshqarmasi** Uchtepa tumanidagi binosining **isitish tizimi to'liq ishlamaydi, tomning ayrim joylaridan chakka o'tadi.** Yashnobod tumanidagi binoning **xonalari isitish radiatorlari bilan to'liq jihozlanmagan,** deraza romlari o'ta eskirganligi sababli xonalarni **issitish bilan bog'liq muammolar mavjud.**

Kun tartibidagi masala bo'yicha berilgan ma'lumotlar va bildirilgan fikr-mulohazalar muhokamasi asosida **Agentlik Hay'ati qaror qiladi:**

1. "O'zarxiv" agentligi direktori o'rinbosari Sh.Sadikovning kun tartibidagi masala bo'yicha bergan axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Andijon (**N.Zuxriddinov**), Namangan (**N.Axmadaliyev**), Sirdaryo (**O'.Burxanova**), Surxondaryo (**B.Abdushukurov**), Toshkent (**D.Rayimjonov**) viloyatlari, Toshkent shahar (**D.Kucharova**) arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko'rsinlar, joiz bo'lganda mahalliy hokimliklarga rasmiy murojaat etsinlar va bajarilgan ishlar yuzasidan **2020-yil 20-noyabrga qadar** Agentlikka ma'lumot kiritinlar.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari va O'zbekiston milliy arxivlari hamda Arxiv ishi va ish yuritish markazi direktorlari:

**10 kunlik muddatda** barcha arxiv muassasalarida 2022-2023-yillar kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ishlarining borishi qayta tahlildan o'tkazsinlar va mavjud kamchiliklarni bartaraf qilish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar belgilasinlar;

**2022-yil 20-noyabrga qadar** amalga oshirilgan ishlar bo'yicha Agentlikka ma'lumot kiritinlar.

4. 2022-2023-yillar kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ishlarining borishi bo'yicha shaxsan rahbarlar mas'ul ekanligi belgilab qo'yilsin.

5. Ushbu Hay'at yig'ilishi qarorlari ijrosi yuzasidan umumiy nazorat Agentlik direktori o'rinbosari Sh.Sadikov zimmasiga yuklatilsin.

Bayonnoma tuzuvchi:  
Sh.Xojiboyev

“O‘zarxiv” agentligi Hay’atining  
2020-yil 27-oktabrdagi 14-son  
yig‘ilish bayoniga  
ilova

**2022-yil oktabr-dekabr oylarida hamda 2023-yil yanvar oyi 1-dekadasida “O‘zarxiv” agentligi tarkibiy bo‘linmalari va Arxiv ishi hududiy boshqarmalari, O‘zbekiston Milliy arxivlari hamda Arxiv ishi va ish yuritish bo‘yicha malaka oshirish ilmiy-metodik markazida Ijro.gov.uz tizimidagi topshiriqlar ijrosini barvaqt ta’minlash bo‘yicha  
JADVAL**

<b>T/r</b>	<b>Topshiriq mazmuni</b>	<b>Tarkibiy bo‘linmadagi mas’ul ijrochi</b>	<b>Ijro.gov.uz tizimidagi bajarish muddati</b>	<b>Ijro.gov.uz tizimiga ma’lumotlarni kiritish sanasi</b>	<b>Topshiriqni nazoratdan yechilishini ta’minlash sanasi</b>
1.	<b>PQ-138-son qaror. 12.02.2022y. 8.5-band.</b> “O‘zarxiv” agentligi hududiy adliya va prokuratura organlari bilan birgalikda 2022-yil yakuniga qadar davlat arxivlari saqloviga berilgan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining yer uchastkalari berish to‘g‘risidagi qarorlari, kolxozlar a‘zolarining umumiy majlislari bayonnomalari, sovxozlar va boshqa qishloq xo‘jaligi tashkilotlarining buyruqlarini xatlovdan o‘tkazib, ularning elektron nusxalarini muntazam ravishda yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini ta’minlash uchun tuman (shahar) sektor rahbarlari hamda hokim yordamchilariga taqdim etilishini ta’minlasin.	<b>A.Ziyatdinov</b> Arxiv ishi hududiy boshqarmalari, O‘zbekiston Milliy arxivlari hamda Arxiv ishi va ish yuritish bo‘yicha malaka oshirish ilmiy-metodik markazi	30-oktabr	20-oktabr	25-oktabr
2.	<b>PF-198-son Farmon. 24.08.2022y. 9.1-band.</b> Vazirlik va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa davlat tashkilotlari 2022-yil yakuniga qadar o‘zlari hamda tizim tashkilotlari boshqaruvidagi davlat ko‘chmas mulk	<b>A.Fayzullayev</b> Arxiv ishi hududiy boshqarmalari, O‘zbekiston Milliy arxivlari hamda Arxiv ishi va ish yuritish bo‘yicha	31-dekabr	30-noyabr	5-dekabr

T/r	Topshiriq mazmuni	Tarkibiy bo‘linmadagi mas’ul ijrochi	Ijro.gov.uz tizimidagi bajarish muddati	Ijro.gov.uz tizimiga ma’lumotlarni kiritish sanasi	Topshiriqni nazoratdan yechilishini ta’minlash sanasi
	obyektlariga bo‘lgan huquqlarning kadastr organlarida qonunchilikda belgilangan tartibda to‘liq davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini ta’minlasin.	malaka oshirish ilmiy-metodik markazi			
3.	<b>PQ-43-son qaror. 10.12.2021y. 1.7-band.</b> Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq 2022-yildan boshlab har yili: a) kelgusi yillar uchun O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi (keyingi o‘rinlarda – Dastur) ishlab chiqilishida: hududlar, sohalar va tarmoqlar rahbarlari dastlabki manzilli ro‘yxatga kiritilgan loyihalar bo‘yicha loyiha (loyihaoldi) hujjatlarini 1-noyabrga qadar belgilangan tartibda ekspertizadan o‘tkazish choralarini ko‘radi va bu borada ularga shaxsiy javobgarlik yuklatiladi;	<b>A.Fayzullayev</b> Arxiv ishi hududiy boshqarmalari, O‘zbekiston Milliy arxivlari hamda Arxiv ishi va ish yuritish bo‘yicha malaka oshirish ilmiy-metodik markazi	1-noyabr	20-oktabr	Keyingi muddatga o‘tkaziladi.
4.	<b>PQ-168-son qaror. 18.03.2022y. 4.2-band.</b> Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari, vazirlik, idora va xo‘jalik boshqaruvi organlari rahbarlari Agentlik va Kadastr agentligi bilan birgalikda: doimiy ravishda ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari, shuningdek, ustav kapitalining 50 foizi va undan ortiq miqdorda davlat ulushiga ega yuridik shaxsga tegishli bo‘lgan yuridik shaxslar (keyingi o‘rinlarda – davlat ishtirokidagi korxonalar) hamda davlatga tegishli bo‘sh turgan, samarasiz foydalanilayotgan va asosiy faoliyatga oid bo‘lmagan aktivlarni (keyingi o‘rinlarda – aktivlar) aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini davom ettirsin;	<b>A.Fayzullayev</b> Arxiv ishi hududiy boshqarmalari, O‘zbekiston Milliy arxivlari hamda Arxiv ishi va ish yuritish bo‘yicha malaka oshirish ilmiy-metodik markazi	16-dekabr	30-noyabr	Keyingi muddatga o‘tkaziladi.

T/r	Topshiriq mazmuni	Tarkibiy bo‘linmadagi mas’ul ijrochi	Ijro.gov.uz tizimidagi bajarish muddati	Ijro.gov.uz tizimiga ma’lumotlarni kiritish sanasi	Topshiriqni nazoratdan yechilishini ta’minlash sanasi
5.	<b>PF-46-son qaror. 30.12.2021-y. 16.3-band.</b> Barcha davlat organlari va tashkilotlari: har chorakda bir marta, hisobot choragidan keyingi oyning 10-sanasiga qadar o‘zlari tomonidan yangi ekilgan daraxtlar soni va turi bo‘yicha ma’lumotlarni Davlat ekologiya qo‘mitasining hududiy bo‘linmalariga majburiy tartibda taqdim etib borsin.	<b>A.Fayzullayev</b> Arxiv ishi hududiy boshqarmalari, O‘zbekiston Milliy arxivlari hamda Arxiv ishi va ish yuritish bo‘yicha malaka oshirish ilmiy-metodik markazi	31-dekabr	30-noyabr	Keyingi muddatga o‘tkaziladi.
6.	<b>PF-46-son qaror. 30.12.2021-y. 5-ilova 21-band.</b> Manzarali daraxt va buta ko‘chatlarini yetishtirish.	<b>A.Fayzullayev</b> Arxiv ishi hududiy boshqarmalari, O‘zbekiston Milliy arxivlari hamda Arxiv ishi va ish yuritish bo‘yicha malaka oshirish ilmiy-metodik markazi	31-dekabr	30-noyabr	Keyingi muddatga o‘tkaziladi.
7.	<b>PF-6084-son Farmon. 20.10.2022y. 2.16.2-band.</b> Jadid namoyandalarining boy ma’naviy merosi, hayoti va faoliyatini o‘rganishga oid ilmiy izlanishlarni rag‘batlantirish.	<b>Sh.Tursunbayev</b> Arxiv ishi hududiy boshqarmalari, O‘zbekiston Milliy arxivlari hamda Arxiv ishi va ish yuritish bo‘yicha malaka oshirish ilmiy-metodik markazi	31-dekabr	30-noyabr	Keyingi muddatga o‘tkaziladi.
8.	<b>PF-5834-son Farmon. 20.09.2019y. 9.1-band.</b> Agentlik 2023-yil 1-yanvargacha bosqichma-bosqich davlat arxivlari saqlorida bo‘lgan shaxsiy tarkib hujjatlarini shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlariga o‘tkazish choralari ko‘rsin.	<b>A.Fayzullayev</b> Arxiv ishi hududiy boshqarmalari, O‘zbekiston Milliy arxivlari hamda Arxiv ishi va ish yuritish bo‘yicha malaka oshirish ilmiy-metodik markazi	1-yanvar 2023-yil	1-dekabr	5-dekabr